

## QORAXONIYLAR DAVRIDA HARBIY TIZIMNING MARKAZLASHUVI

**Rahmatov Murodjon Azam o‘g‘li**

Buxoro davlat pedagogika institut talabasi

+998905123132

E-mail: [murodrahmatov14@gmail.com](mailto:murodrahmatov14@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Qoraxoniylar davlati (X–XII asrlar) Markaziy Osiyoda ilk musulmon turkiy sulolalardan biri sifatida siyosiy va harbiy sohada markazlashgan boshqaruv tizimini shakllantirganligi haqida, hamda harbiy tizimning markazlashuvi davlat hududiy yaxlitligini ta‘minlash, ichki barqarorlikni mustahkamlash va tashqi xavflarga qarshi samarali mudofaa yuritish imkonini berdi. Qo‘sish tuzilmasi doimiy otliq kuchlar, viloyat lashkarlari va saroy gvardiyasidan iborat bo‘lib, u yagona boshqaruv ostida faoliyat yuritdi. Harbiy boshqaruv markazi xon saroyida joylashgan bo‘lib, barcha strategik qarorlar oliy hukmdor va harbiy kengash tomonidan qabul qilindi. Qoraxoniylar harbiy tizimining markazlashuvi savdo yo‘llarining xavfsizligini ta‘minlab, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun shart-sharoit yaratdi.

**Kalit so‘zlar:** Qoraxoniylar, harbiy tizim, markazlashuv, otliq qo‘sish, viloyat lashkari, harbiy kengash, mudofaa siyosati, saroy gvardiyasi.

## CENTRALIZATION OF THE MILITARY SYSTEM DURING THE QARAKHANI PERIOD

**Annotation:** This article discusses the fact that the Qarakhanid state (X-XII centuries) was one of the first Muslim Turkic dynasties in Central Asia, which formed a centralized system of governance in the political and military spheres, and the centralization of the military system made it possible to ensure the territorial integrity of the state, strengthen internal stability, and conduct effective defense against external

threats. The structure of the army consisted of permanent cavalry, regional armies, and the palace guard, which operated under a single command. The center of military command was located in the khan's palace, and all strategic decisions were made by the supreme ruler and the military council. The centralization of the Qarakhanid military system ensured the security of trade routes and created conditions for economic and cultural development.

**Key words:** Qarakhanids, military system, centralization, cavalry, regional army, military council, defense policy, palace guard.

## ЦЕНТРАЛИЗАЦИЯ ВОЕННОЙ СИСТЕМЫ В КАРАХАНСКИЙ ПЕРИОД

**Аннотация:** В статье рассматривается тот факт, что государство Карабанидов (X–XII вв.) было одной из первых мусульманских тюркских династий в Центральной Азии, сформировавшей централизованную систему управления в политической и военной сферах. Централизация военной системы позволяла обеспечить территориальную целостность государства, укрепить внутреннюю стабильность и вести эффективную оборону от внешних угроз. Армия состояла из постоянной конницы, региональных армий и дворцовой гвардии, которые действовали под единым командованием. Центр военного управления находился в ханском дворце, а все стратегические решения принимались верховным правителем и военным советом. Централизация военной системы Карабанидов обеспечивала безопасность торговых путей и создавала условия для экономического и культурного развития.

**Ключевые слова:** Карабаниды, военная система, централизация, конница, региональное войско, военный совет, оборонная политика, дворцовая гвардия.

## KIRISH.

(X asr oxiri - XII asrlar). Markaziy Osiyo xalqlari tarixida o‘ziga xos o‘rin tutgan davlatlardan biri Qoraxoniylar xoqonligi edi. Turkiy davlatchilik an’analari asosida shakllangan mazkur davlat X asrning 90-yillarida Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Janubiy Tangritog‘ oldidagi hududlarda tashkil topgan. Davlatning barpo bo‘lishida qarluq, chigil, yag‘mo kabi yirik turkiy qabilalar yetakchilik qilgan. Qoraxoniylar sulolasi hukmdorlari Arslonxon va bug‘roxon unvonlari bilan yuritilgan. Taxtga chiqqan Arslonxon yoki bug‘roxon, ulug‘xon, ya’ni qoraxon deb atalgan. Ba’zida qoraxon, «xonlar xoni», «tamgachxon» deb ham yuritilgan. X asr oxirida Qoraxoniylar hukmdori Abdulkarim Sotuq Bugroxon va uning nabirasi Horun ibn Muso ibn Sotuq boshchiligidagi Movarounnahrga yurish qilib, 922 yilda Shosh, Farg‘ona va boshqa turkiy kabilalar yashagan viloyatlar qo‘shinlari bilan birga Buxoroni egallagan. 996-999 yillardagi ikkinchi yurishda Somoniylar davlatiga barham berilib, Qoraxoniy Nasr I butun Movarounnahrni egallagan. Shu tariqa Nasr I Movarounnaxrga yangi turkiy sulolalar hukmronligiga asos solgan. Bu davlat to 1212-yilgacha boshqa bir turkiy davlat hukmdori Muhammad Xorazmshox tomonidan butunlay tugatilmaguncha, Movarounnahrni boshqarib turdi[1;-156].

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Qoraxoniylar xoqonligining qurolli kuchlari masalasi uyg‘ur olimi Hoji Nurxajining arab alifbosiga asoslangan uyg‘ur tilida nashr etilgan «Qadimgi uyg‘urlar va qoraxoniylar» nomli asarida keltiriladi. Asarning uchinchi bobi «Qoraxoniylar davridagi harbiy qo‘shin» deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda keltirilgan ma’lumot o‘rganilayotgan mavzuga qator aniqliklar kiritishga yordam beradi. Hoji Nurhaji asarida yozilishicha, Qoraxoniylar sulolasi armiyani kuchaytirish, unga rahbarlik qilish, urush tarixini va qonuniyatlarini o‘rganish masalasiga katta e’tibor bergen. Shu bilan birga, harbiy qo‘shinlarga rahbarlik qiluvchilarga ko‘yilgan talablar ishlab chiqilgan. Mazkur talablarga ko‘ra, qo‘mondonlardan qattik intizom, dovyurak, kuchli, qobiliyatli, qurollarni yaxshi bilishdan tashqari, o‘qimishli va harbiy bilimning ustasi bo‘lishi talab qilingan.

Yusuf Xos Hojibning so‘zi bilan aytganda, bir harbiy qo‘mondon chakkonlik jasoratli, tajribali, farosatli, bir so‘zli, yurakli bo‘lish kifoya qilmaydi, u dushmanning ahvolini o‘rganishi va yaxshi bilishi, siyosiy va harbiy vaziyatdan to‘la xabardor bo‘lishi, qo‘l ostidagi qo‘shinni oqilona boshqara bilishi, qo‘shinlarni joylashtirishda yaxshi joy tanlashi, odamlarga mehribon bo‘lishi lozim bo‘lgan. Shuningdek, qo‘mondonlardan lashkarlarni o‘ziga ishontira olish, buning uchun yaxshi muomalali, yumshok ko‘ngilli bo‘lish bilan birga, urushda jasorat ko‘rsatish, zarur bo‘lganda hiyla ishlata olish, o‘zining oilasi va bolalari manfaatlarini ko‘zlab davlat va xalq manfaatini oyok osti qilmaslik kabi fazilatlar talab etilgan. «Qutadgu bilik»da qayd etilishicha, «qo‘mondon mol-mulk orqasida yurmasligi, pul yig‘masligi lozim. Shunda u o‘z atrofiga mard yigitlarni to‘pay oladi, ular esa urushda aziz jonlarini fido qiladi. Qo‘mondon mag‘rur bo‘lsa, dushman uning oldida mag‘lub bo‘ladi», - deb yozilgan. Qoraxoniylar xoqonligida mavjud bo‘lgan odatga ko‘ra, aksariyat hollarda xoqonning o‘zi yoki uning o‘gli bosh qo‘mondon lavozimiga tayinlangan. Armiya «suv», bosh qo‘mondon esa «suv boshi» deb nomlangan[2;-256]. Har bir 4 ming kishi «bir qo‘shin», 12 ming kishi «cho‘ng qo‘shin» (katta qo‘shin) deb atalgan. Bosh qo‘mondon o‘zi uchun turarjoy, ya’ni «o‘rdagox» tanlashi, qo‘shinlarni olib kelish va tarqatish uchun qulay joy tanlay olishi muhim vazifalardan biri deb karalgan. Qoraxoniylar sulolasiga qo‘shinlarining tartib-intizomi masalasiga jiddiy e’tibor berilgan. Ayniqsa, qo‘mondonlar tayinlashda yuqorida ko‘rsatilgan talablardan kelib chiqish shart bo‘lgan. Mamlakatda joriy etilgan qonun-qoidalarga ko‘ra, tinchlik davrida muntazam xizmatdagi armiya soni ko‘p bo‘lmagan, ammo uning jangovarligini oshirishga katta e’tibor berilgan. Urush davrida armiyaning soni ko‘paytirilgan, urush tugagandan so‘ng qo‘shimcha safarbar qilingan askarlar uyiga qaytarilgan. Muntazam armiya qal’alarni himoya qiluvchi, xoqonni himoya qiluvchi (yirtig‘), dushmanga kechasi zarba beruvchi (akinchi), dushmanning ichki ahvolini kuzatuvchi (yizak) va ma’lumot olish maqsadida dushman odamlarini tutib keluvchi (tutkok), kechasi sokchilik qiluvchi (yotqoq), kunduzi sokchilik qiluvchi (turg‘oq) kabi qismlardan iborat bo‘lgan. Qurolli kuchlar markaziy o‘rdani himoya qiluvchi, davlat

ixtiyoridagi muntazam armiya, koraxoniylar sulolasiga a'zolariga, hokimlarga (voliylarga) va boshqa yukori darajali amaldorlarga tegishli qo'shinlar, kabilalar boshligi ixtiyoridagi harbiy qism kabilarga bo'lingan. Qoraxoniylar harbiy qismlarida eng kichik birlik «o'toq» - o'nlik tizimi joriy etilgan. 10 kishidan iborat qism bir chodirga joylashtirilgan. Bu qismning boshligi esa «o'tokboshi» deb nomlangan. Bir necha o'tokka rahbarlik qilgan kishi «hayil boshi» deb atalgan. Ko'p hollarda 10 ta utok bir qismni tashkil qilgan bo'lib, buning tarkibidagi askarlar soni 80 kishidan kam - 100 kishidan ko'p bo'lmasligi belgilangan.

Bunday qismga yetakchilik qilgan amaldor «o'n o'toq boshi» deb nomlangan bo'lib, uning qaramogida «yuzboshi», «yuzlar amir boshi» unvonlarida xizmat qiluvchilar bo'lgant. Urush davrida qo'shinlar «o'ng qo'l qo'shin», «so'l qo'l qo'shin», «o'rta saf» va «orqa saf»larga bo'lingan. Bular ma'lum bir tartibda va aniq belgilangan o'rinda turib harakat qilgan. Qo'shining oziq-ovqat ta'minoti bilan maxsus qismlar shug'ullangan bo'lib, bu masalaning yaxshi bajarilishi galabaning asosi deb belgilangan. Urushda kahramonlik ko'rsatgan yoki katta galabaga erishgan koraxoniyo xoqonlariga «bug'roxon», «bug'ro-koraxon» yoki «tungaxon», Qoraxoniylar sulolasiga xokimiyatini kuchaytirishda xizmat ko'rsatgan yoki tashqi siyosatda, iqtisodiy va madaniy ishlarda faol harakat qilgan xoqonlarga esa, «kodirxon» unvonlari berilgan. Jangda jasorat ko'rsatganlarga «qilichxon» yoki «so'qman» (dushman safini yorib o'tish ma'nosini bildiradi), «tunga-tekin», «aliitekin», «yorgon-tekin» unvonlari berilgan. Davlat ishlardida xizmat ko'rsatgan shaxslar «kul-bilgaxon», xon o'rdasidam xizmat ko'rsatganlar esa «bosh hojib» unvonlari bila taqdirlangan. Barcha amaldorlar, jumladan, harbiy amaldorlar o'z mansablari uchun belgilangan kiyim-kechaklarga, maktub yo'llashda tuzilgan matnlarga o'zlarining maxsus tamgalarini bosishlari shart edi. Tamgalarda esa egasining ismi, mansabi yozilgan bo'lib, ular xoqon tomonidan taqdim etilgan. Barcha harbiy amaldorlarning maoshi boshqa amaldorlar singari ma'lum qonun-qoida asosida belgilangan bo'lib, uning o'sishi yoki kamayishi mansab va lavozimning o'zgarishiga, ko'rsatgan xizmatiga bog'lik bo'lган.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA.

Qoraxoniylar davrida harbiy ishlar bilan shug‘ullanadigan maxsus devon ta’sis etilgan bo‘lib, u «harbiy devon» deb nomlangan. Mazkur idora harbiylarni tizimlash, ularning maoshlarini belgilash va tarqatish, lavozimlarning o‘zgarishi bilan ‘ bo‘lgan barcha rasmiyatlar bilan shug‘ullanish, qurbon bo‘lganlarni ro‘yxatdan chiqarish va yangilarni ro‘yxatga olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Bunday ro‘yxatlar uchun tutilgan daftар «oy-butuki» yoki qisqartirilgan shaklda «oy» deb atalgan. Askarlikka odam olishda diniy e’tiqod masalasiga e’tibor berilgan va ularning barcha harakatlari shariat talablariga binoan baholangan. Askarlikka odam olish majburiy va tanlov asosida amalga oshirilgan, harbiy xizmatga jalb etilganlarga esa oyma-oy maosh to‘langan. Hoji Nurxajining yozishicha, shu davrdagi saljukiyarda o‘rda askarlariga to‘rt oyda bir marta oylik to‘langan edi. Oyma-oy maosh to‘lash koraxoniylar qo‘sishinlarining jangovarlik ruhini mustahkamlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Qoraxoniylar qo‘sishinlarida 9 xil tug ishlatilgan. Bu haqda Maxmud Qoshgariy «tug‘ - alam demaktur, to‘qqiz tug‘lik xon deyiladi, mayli viloyat qancha ko‘p bo‘lsin, martabasi ustun bo‘lsin, tug to‘qqizdan ortiq bo‘lmaydi. Chunki 9 soni xosiyatli bo‘ladi», - deb yozgan. Tug‘larning rangi sargish qizil (och qizil) bo‘lgan va ipak yoki paxta matodan to‘qilgan[4;-185].

Hoji Nurxajining xulosasiga qaraganda, qoraxoniylar davrida joriy etilgan harbiy tuzilma va unvonlar Turk xoqonliklari davridagi an’analardan deyarli farq qilmagan. Faqatgina bir necha o‘toqqa, ya’ni bir necha 10 kishidan iborat bo‘lgan harbiy qismga rahbarlik qilgan «hayil boshi» (qisqacha «hail») unvoni qoraxoniylar islom dinini qabul qilganlaridan so‘ng joriy etilgan. Qoraxoniylar davrida turli hududlarga joylashtirilgan harbiy qismlarning o‘zaro aloqalarini yo‘lga ko‘yish ishlariga katta e’tibor berilgan. Bu borada aloqalarni ikki xil uslub bilan amalga oshirishgan. Bularning biri tez chopar otlar yordamida, ikkinchisi, baland tog cho‘qqilariga va tejaliklarga qurilgan minoralar ustiga olov yokish bilan (kurg‘uy, karg‘u) amalga oshirilgan. Harbiy taktika masalasida pistirma qo‘yish dushmanга yolgon xabar yetkazib chalgitish harbiy qismlar joylashgan yerlarni baland devorlar bilan o‘rab olish, devorlar ustiga kuzatish minoralarini barpo etish

ishlariga katta e'tibor berilgan[5;-26]. Bu davrda ishlatilgan quroq-yaroglar asosan o'q-yoy, qilich, bolta, nayza (sanku), temir to'qmok (basu gurza), xanjarlardan iborat bo'lib, bular hujum qurollari deb hisoblangan. Metalldan qilingan sovut (yorik), dubulga (metalldan qilingan kalpok) va qalqon himoya qurollari sifatida ishlatilgan. Ushbu qurollar ichida qilich bilan boltaga katta ahamiyat berilgan. Dubulga kiygan kishi ba'zan «yashuk» deb nomlangan. Dubulga kiyganda bosh ogrimaslik uchun uni kiyishdan avval boshga jundan to'qilgan kalpok kiyilgan. Bunday jun kalpok «kaduk» deb atalgan. Sovutning shakli xar xil bo'lib, u mayda halkachalardan, zanjirlar, tangasimon metall parchalaridan qilingan. Bunday sovutlar shakliga qarab halqa sovut, zanjir sovut (o'rma yorik), tanga sovut (soy yorik) deb atalgan. Sovut kiygan jangchi «yoriklik ar», kiymagan kishi «boshnak ar» deb nomlangan. O'q-yoy uchun ishlatilgan o'q yog'ochdan maxsus asbob yordamida tekis va silliq qilib yasalgan. O'qning oxirgi qismiga qush pati yopishtirish uslubi bilan otganda ovoz chiqaradigan va ovozsiz o'qlar ishlab chiqarilgan. Ovozli o'qlar dushmani qo'rqtish yoki unga vahima solish uchun, ovozsiz o'qlar esa dushmaniga qo'qqisdan, kutilmagan zarba berish va o'qning qayerdan kelganligini sezdirmaslik uchun ishlatilgan. Nayzalarning uchi (bashoq) yapaloq va uzun uchlik qilib po'latdan yasalgan. Qoraxoniylar ishlatgan qilichlar yuqori sifatli io'latlardan va turkiy xalqlarga xos bo'lган an'anaviy shaklda yasalgan. Ayrim hollarda qilich sopi tilla bilan bezatilgan. Qilichning egasi uni doim asrashi va yaltiratib ko'yishi shart bo'lган. Qilichlarni yaltiratish maxsus modda yordamida amalga oshirilgan. Qoraxoniylar davrida «qilich qamchi» nomli yana bir quroq ishlatilganligi ma'lum. Ammo bu quroqning aniq shakli saklanmagan. Mavjud taxminlarga ko'ra, qamchi uchiga o'tkir tig' joylashtirilgan. Ishlatilgan asosiy qurollar qilich, bolta, xanjar, nayza, o'q-yoy, himoya vositalari esa qalkon, sovut va dubulg'a (po'lat kalpok) bo'lган[6;-59].

## XULOSA.

Harbiy qismlarda sir saqlash, dushman aygokchilarining pinhoniy kirib kslishini oldini olish, dushman hududida o'z odamlarini tanib olish, urushga tayyorgarlik ko'rilayotganda o'z odamlarini tanimay kolmaslik uchun shartli ibora - parol masalasiiga

katta e'tibor berilgan va bu ham ma'lum darajada o'ziga xos qurol deb tushunilgan. Parol so'zi esa «im» deb nomlangan. Im tez-tez o'zgarib turgan va u nihoyatda maxfiy saqlangan. Xoqon bosh qo'mondon hisoblangan. Davlatning muntazam armiyasidan tashkari, xoqon avlodlari, xokimlar, yirik amaldorlar va kabilia boshliqlari ixtiyorida ham himoya bilan shug'ullanuvchi harbiy maxsus qismlar bo'lgan. Qoraxoniylar xoqonligida harbiy saloxiyat, qo'shin tuzilishi, uning kuchi askarlikka yollash asosida amalga oshirilgan. Tinchlik davrida harbiylar ko'ichilikni tashkil etmaganligi, katta qo'shin urush davrida to'planganligi bu davrda muntazam armiya bo'lmasligidan dalolat beradi. Ammo harbiy sohada qo'shin tuzilishida asrlar davomida turkiy xalqlar orasida shakllangan an'analar saqlanib qolgan. Jangchilarni vataniarvarlik, mol-dunyoga berilmaslik va sotqinlikka moyil bo'lmasligiga va jangovar ruxda tarbiyalashga katta e'tibor bergenlar.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekistonda harbiy ish tarixidan (qadimgi davrdan hozirgacha) / O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi; mas'ul muharrir: D.X. Ziyayeva / - T.: «Sharq», 2012. - 256 b.
2. O'zbekiston tarixi (O'zbekiston harbiy san'ati tarixi) VIII jild (O'zbekiston tarixi va manbalari). Toshkent.: «Ma'naviyat» 2023. 458-B.
3. Dadaboyev X.V. "Harbiy san'at tarixi". Darslik. - Toshkent: «El-press», 2013. 189-b.
4. Сагдуллаев А., Б.Эшов. Ўзбекистон тарихи. 1-қисм. Т.: Университет, 1999., 217-b
5. Кораев О.К. История Караканидского каганата. - Фрунзе: Или, 1983. С. 55.
6. Аблат Ходжаев, Дилрабо Турдиева. Қорахонийлар хоқонлиги тарихи Хитой Халқ Республикаси олимлари тадқиқотларида. Тошкент, «Fan ziyozi» нашриёти, 2021. 148 б.